



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 117 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhujja Rikhsikhujjaev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	



O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR



Najmiddinova Malikabonu Asrorovna

TDIU, Iqtisodiyot fakulteti I-75-gurux talabasi

E-mail: najmiddinova1704@gmail.com



Ilmiy rahbar:

F.Umarov

TDIU, Mintaqaviy

iqtisodiyot kafedrasasi dosenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston hududlari misolida mintaqaviy tafovutlar muammosi hamda ularni bartaraf etishda investitsiyalar, kichik tadbirkorlik subyektlari va aholiga to'g'ri keluvchi jami daromadning o'rni o'rganiladi. Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizliklar ijtimoiy barqarorlik, infratuzilma rivoji va mehnat resurslarining samarali taqsimotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri, investitsiyalar yo'naltirilgan hududlar va kam e'tibor qaratilgan mintaqalar o'rtasidagi farqlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Natijalar investitsiya siyosatini mintaqaviy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xulosa qismida mavjud muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tizimli chora-tadbirlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy nomutanosiblik, barqaror o'sish, bandlik, yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot.

Abstract: This article examines the issue of regional disparities in Uzbekistan and analyzes the role of investments, small business entities, and per capita income in reducing these imbalances. Economic inequality between regions directly affects social stability, infrastructure development, and the efficient allocation of labor resources. The study evaluates how investments influence regional economic indicators and identifies differences between regions receiving substantial investment and those with limited investment activity, using statistical data for comparative analysis. The findings highlight the need to align investment policy with regional development strategies. The conclusion section proposes systematic measures that should be implemented by the government to address existing challenges.

Key words: regional economic development, economic inequality, sustainable growth, employment, gross domestic product, gross regional product.

Аннотация: В данной статье исследуются проблемы региональных диспропорций на примере областей Узбекистана, а также роль инвестиций, субъектов малого предпринимательства и совокупного дохода на душу населения в их устранении. Экономическое неравенство между регионами оказывает прямое влияние на социальную стабильность, развитие инфраструктуры и эффективное распределение трудовых ресурсов. В ходе исследования проводится анализ влияния инвестиций на региональные экономические показатели, а также различий между регионами, куда активно направляются инвестиции, и территориями с низким уровнем инвестиционной активности. Результаты работы показывают необходимость гармонизации инвестиционной политики с региональными стратегиями развития. В заключении предлагаются системные меры, которые должны быть реализованы государством для решения существующих проблем.

Ключевые слова: региональное экономическое развитие, экономические диспропорции, устойчивый рост, занятость, валовой внутренний продукт, валовой региональный продукт.



KIRISH

Mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish muhim ahamiyatga egadir. "O'zbekiston-2030 strategiyasi"da belgilangan asosiy maqsadlar sirasida hududlarning imkoniyatlarini kengaytirish, mintaqalar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish va aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilgan islohotlar muhim o'rin olgan [1].

Shu bilan birga, hududlararo iqtisodiy faollik va dastlabki ko'rsatkichlar bo'yicha aniq tafovutlar mavjudligi ham dalillanishi mumkin. Masalan, so'nggi paytlarda o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, "hududlar iqtisodiyotida tafovutlar mavjud", deb ta'kidlanmoqda [4].

Bunday tafovutlar iqtisodiy imkoniyatlar, sanoat va xizmatlar sektorlarining tarmoqlanishi, infratuzilma darajasi, ish o'rinlari va investitsiyalar jami bo'yicha viloyatlar kesimida sezilarli darajada farq qiladi. Misol uchun, "2021-yilda hududlar kesimida iqtisodiy faollik reytingi tuzildi. Unga ko'ra Toshkent shahri va viloyati, Buxoro, Navoiy kabi sanoati rivojlangan hududlar bilan, masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo yoki Jizzax viloyatlaridagi iqtisodiy faoliyat darajasi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. 2024-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, yalpi hududiy mahsulot hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida qayd etilgan bo'lsa, ba'zi viloyatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha darajadan ancha past bo'lgan. Bu tafovutlar faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda emas, balki yashash darajasi, ish bilan bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi kabi ijtimoiy sohalarida ham namoyon bo'ladi" [4].

Shu jihatdan, O'zbekistonda hududiy siyosatni isloh qilish, maydon jihatdan orqada qolayotgan viloyatlar imkoniyatlarini kengaytirish va viloyatlararo integratsiyani kuchaytirish strategik ahamiyatga ega. "O'zbekiston-2030 strategiyasi"da hududlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ham aniq belgilangan.

Mazkur maqolada hududlararo iqtisodiy tafovutlar masalasi quyidagi tarzda ko'rib chiqiladi: birinchi navbatda viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning mavjud holati va sabablari tahlil qilinadi, so'ngra "O'zbekiston-2030 strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan hududiy rivojlanish islohotlari ko'zdan kechiriladi, oxirida esa muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar taklif qilinadi. Shu bilan birga, mintaqaviy hamkorlik, investitsiyalarni viloyatlar kesimida jalb qilish, klaster tizimlarini kengaytirish kabi vositalar ham tavsiya qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar hududiy rivojlanish adabiyotida uzoq vaqt davomida markaziy masala bo'lib kelgan. Masalan, klassik "Yangi iqtisodiy geografiya" nazariyasi aglomeratsiya kuchlari va markazlashuv jarayonlarini ko'taradi. Ushbu nazariy yondashuvlar viloyatlar o'rtasida sanoat, infratuzilma va investitsiyalarning markazlashuvi tufayli tafovutlar paydo bo'lishini tushuntirishga yordam beradi. Xorijiy tadqiqotlar hududiy tafovutlar shakllanishida transport xarajatlari, bozor hajmi va ijtimoiy infratuzilma kabi omillarni alohida ta'kidlaydi.

"Hududlarni mutanosib rivojlantirishini ta'minlashdagi global yondashuv va strategiyalar" nomli maqolada hududiy rivojlanishni ta'minlashda qo'llanilayotgan global yondashuvlar va strategiyalar tahlil qilingan. Muallif hududlararo tafovutlarni kamaytirish va mintaqaviy siyosatni shakllantirish bo'yicha xalqaro tajriba asosida tavsiyalar beradi. Maqolada qayd etilishicha: "Hududlarni rivojlantirish markaziy siyosatlar bilan shakllanadi va mahalliy sharoitlarni hisobga olmaydi" (Lenchuk, 2024, p. 12). Bu o'zbek sharoitida ham amaliy yechimlarni izlashni talab qiladigan muammo sifatida ko'tarilgan [9].

"O'zbekiston hududiy rivojlanish strategiyalarida barqaror rivojlanish maqsadlarining integratsiyasi" nomli tadqiqot O'zbekistonda qabul qilingan hududiy rivojlanish strategiyalarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) integratsiyasini tahlil qilgani bilan ajralib turadi. Muallif 2017-2023-yillarda qabul qilingan 20 dan ortiq normativ hujjatni kontent-tahlil usuli bilan o'rgangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlarda SDG tamoyillari "faqat umumiy g'oya darajasida" aks etgan (Mamurov, 2025, p. 5).

"O'zbekiston Respublikasida hududiy siyosat samaradorligini oshirish va barqaror hududiy rivojlanishni ta'minlash" nomli tadqiqot ishida hududiy rivojlanishning barqarorligi va uning global tendensiyalari ko'rib chiqilgan. Mirsaidov (2025) ta'kidlashicha: "Hududiy rivojlanish markaziy nazorat bilan emas, balki mahalliy sharoitlar va resurslar asosida shakllanishi lozim."

Shuningdek, iqtisodchi olimlar Filenta va Kydros (2022) tadqiqotlarida mintaqalar o'rtasidagi fazoviy tafovutlar va ularning vaqt o'tishi bilan evolyutsiyasi statistik tahlil usullaridan foydalangan holda o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda miqdoriy usullar va ijtimoiy tarmoq tahlili orqali iqtisodiy va mintaqaviy rivojlanish bo'yicha mavjud adabiyotlarning tizimli sharhi taqdim etilgan [10]. Mualliflar o'z tadqiqotlarida iqtisodiy va mintaqaviy rivojlanishda ijtimoiy tarmoq tahlili texnikasi va usullaridan foydalanishni ilmiy amaliyotga joriy etishga harakat qilgan.



Bundan tashqari, Barro va Sala-i-Martin (1992) tomonidan olib borilgan klassik tadqiqotlarda investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida qayd etilgan. Ular Solow modeliga tayanib, investitsiyalar hajmidagi oshish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni tezlashtirishini ilmiy asoslab bergan.

Jahon bankining World Bank Development Indicators (2022) ma'lumotlarida ham bevosita xorijiy investitsiyalar (BXI) bilan yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi ko'rsatilgan. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda BXI hisobiga infratuzilma va sanoat rivojlanmoqda [2].

Krugman (1991) o'zining "New Economic Geography" modelida iqtisodiy faoliyatning makon bo'yicha notekis taqsimlanishi – ya'ni "regional inequality" tushunchasini izohlab bergan. Unga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish markazlari atrofida konsentratsiyalashuv mintaqaviy tafovutlarni kuchaytiradi [7].

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (2022) tomonidan e'lon qilingan "Hududiy rivojlanish strategiyasi"da mamlakatda mavjud mintaqaviy tafovutlar aniq raqamlar bilan ko'rsatib o'tilgan. Misol uchun, Toshkent shahri va viloyatida aholi jon boshiga YHM 25 mln so'mni tashkil etsa, bu ko'rsatkich Surxondaryoda 11 mln so'mga teng.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda "O'zbekiston-2030 strategiyasi"da belgilangan hududiy iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonida viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni tahlil qilish asosiy ilmiy vazifa sifatida belgilandi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy-statistik, tahliliy va qiyosiy yondashuvlarga tayangan bo'lib, natijalarni ishonchli va mantiqan asosli tarzda baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning chegaralari 2019-2024-yillar oralig'idagi rasmiy iqtisodiy ma'lumotlar bilan chegaralangan. Ayrim hududlarda statistik ochiqlik pastligi sababli ma'lumotlarning to'liq emasligi tadqiqotning asosiy cheklovlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma, ekologik barqarorlik va innovatsion faoliyatga oid ko'rsatkichlar cheklangan miqyosda qo'llanilgan.

Tahlil usullari:

- Deskriptiv tahlil: investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha hududlar taqqoslandi;
- Gini koeffitsienti va Theil indeksi: iqtisodiy resurslar taqsimotidagi tengsizlik baholandi;
- Panel regressiya modeli: investitsiyalar hajmi va YaIM (yalpi hududiy mahsulot) o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi;
- Konvergensiya tahlili (beta-konvergensiya): kamroq rivojlangan hududlarning rivojlanish sur'atlari tezlashayotganini aniqlash uchun qo'llandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston hududlari o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu holat mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri va unga yaqin hududlar iqtisodiy faollik, infratuzilma sifati hamda aholini qamrab olish darajasi bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Masalan, "2023-yil rivojlanish reytingi" ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahrida ijtimoiy xizmatlar, transport va raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori (Kun.uz). Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va ayrim boshqa viloyatlar iqtisodiy ko'rsatkichlar jihatidan orqada qolmoqda (ResearchGate). MDPI manbalariga ko'ra, ta'lim, infratuzilma va sanitariya xizmatlari sifatida ham hududlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Hududlararo tafovutlarning asosiy sabablari bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, iqtisodiy markazlashuv va investitsiyalarning ko'p hollarda ma'lum bir hududlarda to'planishi natijasida chekka viloyatlarda sanoat, xizmat ko'rsatish va infratuzilma tarmoqlari rivojlanishi sust kechmoqda (Daryo). Ikkinchidan, transport, energetika va kommunal xizmatlar kabi mahalliy infratuzilmaning rivojlanish darajasi hududlarga qarab sezilarli farq qiladi (UNDP). Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy resurslar, malakali kadrlar va ta'lim imkoniyatlarining notekis taqsimlanishi ham iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashishiga olib kelmoqda (The United Nations in Uzbekistan).

Bu holatni yumshatish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston-2030 strategiyasi" doirasida hududlarda barqaror o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalarni rag'batlantirish, yangi sanoat zonalarini tashkil etish, infratuzilmani yaxshilash hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanish choralari ko'rilmogda. Shu bilan birga, mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish va mahalliy iqtisodiy siyosatni yanada muvofiqlashtirishga ham e'tibor qaratilmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, hududlararo iqtisodiy tafovutlar hali ham sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Ayrim viloyatlar infratuzilma, sanitariya va xavfsiz yashash muhitini ta'minlashda orqada qolmoqda (MDPI). Mahalliy darajadagi iqtisodiy imkoniyatlar va sharoitlar o'rtasidagi tafovutlar mamlakat bo'ylab ijtimoiy integratsiyani cheklamoqda. Shu sababli, mavjud strategiyalarni yanada moslashuvchan qilib qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.



Kutilayotgan natijalar va tavsiyalar shundan iboratki, hududiy tafovutlarni kamaytirish uchun “orqada qolgan” hududlarga yo'naltirilgan investitsiya va infratuzilma loyihalarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilash lozim. Shuningdek, mahalliy resurslar va hududlarning o'ziga xos imkoniyatlariga tayanib, iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish – ya'ni sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida yangi klasterlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish va raqamli bo'linmalarni kamaytirish orqali chekka hududlarga ham zamonaviy xizmatlar va imkoniyatlarni yetkazish talab etiladi. Shuningdek, monitoring va baholash tizimini kuchaytirish, hududiy siyosat natijadorligini doimiy ravishda kuzatib borish va muvaffaqiyatli amaliyotlarni boshqa hududlarga tatbiq etish zarur. Shu tarzda, hududlararo tafovutlarni kamaytirish orqali mamlakatda yanada barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-2024-yillardagi yalpi hududiy mahsulot hajmini hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, har bir hududning yalpi hududiy mahsuloti yillar davomida o'sganligini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda bu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori hajmga ega bo'lgan hududlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati hamda Navoiy viloyatlari hisoblanadi. 2024-yilga borib esa, ushbu hududlardagi yalpi hududiy mahsulot hajmi Toshkent shahri – 281 147,4 mlrd so'm, Toshkent viloyati – 146 385,2 mlrd so'm va Navoiy viloyati – 117 297,8 mlrd so'mga oshgan va eng yuqori hajmni qayd etgan. Eng quyi ko'rsatkichlar esa 2021-yilda Sirdaryo, Jizzax va Xorazmga to'g'ri kelgan. 2024-yilga kelib ushbu hududlarning yalpi hududiy mahsulot hajmi oldingi yillarga nisbatan oshgan bo'lsa-da, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichni qayd etgan.

2023-yilda Jahon banki tomonidan “World Development Report” hisobotida iqtisodiy o'sishga erishish uchun hududlarning barqaror va mutanosib tarzda rivojlanishi zarurligi belgilab qo'yilgan. Hisobotda hududlar orasidagi nomutanosiblikni yo'qotish uchun davlat siyosati va boshqaruv tizimlaridan foydalanish zarurligi qayd etilgan [2].

Hududlardagi nomutanosiblikni kamaytirish maqsadida mamlakatimizda ham bir qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Masalan, “Hududlarda sanoatni rivojlantirish va hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-martdagi qarorida hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ularning o'zaro tafovutini kamaytirishga ta'sir qiluvchi yangi yondashuvlar belgilab berilgan [3]. Hududlar rivojlanishidagi tafovutni bartaraf etish tufayli O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Ushbu bo'limda O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy rivojlanishidagi tafovutlarni tahlil qilish uchun mamlakatdagi 14 ta ma'muriy-hududiy birlikning 2020-2025-yillardagi iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlari o'rganilgan. Ushbu tahlilni o'tkazishdan asosiy maqsad – hududlarning rivojlanish sur'atlari va mavjud nomutanosiblikni o'rganishdir.

Tahlilda hududlar rivojlanishidagi tafovutni ko'rsatish uchun hududlarning yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari, yalpi hududiy mahsulot (YaHM), sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari kabi ko'rsatkichlar tanlab olingan.

Bundan tashqari, ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida aholi jon boshiga daromadlar, aholining bandlik darajasi va ta'lim xarajatlari tanlab olingan. Ushbu ko'rsatkichlar hududlardagi aholining ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilab berib, ularning turmush darajasi va sifatini aniqlashga yordam beradi hamda xizmatlarning mavjudligi va samaradorligini ko'rsatadi.

Mazkur ko'rsatkichlar orqali tuzilgan quyidagi ikki jadval hududlarning rivojlanishidagi nomutanosiblikni ochiq namoyon etib, mavjud holat haqida tahlil va xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi hududlarining iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ko'rsatkichlari (2020-2025-yillar)

Hudud nomi	YaIM o'sish sur'ati (%)	YaHM o'sish sur'atlari (%)	Sanoat ishlab chiqarish (mlrd so'm)	Qishloq xojaligi (mlrd so'm)
Toshkent shahri	6.2	5.2	82500	9200
Toshkent viloyati	5.5	5.3	63500	14200
Samarqand viloyati	5.8	4.0	41500	18300
Farg'ona viloyati	5.4	4.0	37400	16700
Andijon viloyati	5.6	3.5	35600	15200
Namangan viloyati	5.3	5.3	33100	14100
Buxoro viloyati	5.2	3.42	28900	13200
Qashqadaryo viloyati	5.1	3.5	27500	12600
Surxondaryo viloyati	5.0	3.1	26200	11900
Xorazm viloyati	5.0	4.0	24800	11200



Jizzax viloyati	4.9	3.5	23600	10500
Sirdaryo viloyati	4.8	3.2	22200	9700
Navoiy viloyati	5.7	4.9	41200	8800
Qoraqalpog'iston viloyati	4.7	2.5	21000	9300

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududlarining 2020-2025-yillardagi iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili davomida hududlararo sezilarli darajadagi nomutanosibliklarni kuzatish mumkin. Toshkent shahrida YaIM o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkichga, ya'ni 6,2 %ga; YaHM esa 5,2 %ga ega bo'lib, ushbu hudud mamlakatimizning iqtisodiy markazi sifatida sanoat ishlab chiqarishda ham yetakchilik qiladi (82 500 mlrd so'm). Qishloq xo'jaligi bo'yicha esa eng past ko'rsatkich Toshkent shahrida kuzatiladi (9 200 mlrd so'm). Toshkent shahrining yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishining asosiy sabablaridan biri uning qulay infratuzilmasi, mehnat resurslarining yuqori konsentratsiyasi va rivojlangan moliyaviy xizmatlaridir.

Toshkent viloyatida ham yuqori ko'rsatkichlar kuzatilib, YaIMning o'sish sur'ati 5,5 %, YaHM o'sish sur'ati esa 5,3 %ni tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarish bo'yicha ham yetakchi o'rinlardan birida turadi (63 500 mlrd so'm).

Samarqand viloyati iqtisodiy o'sish darajasi 5,8 %, hududlar bo'yicha o'sish sur'ati esa 4,0 %ni tashkil etadi. Samarqand viloyati sanoat ishlab chiqarish bo'yicha yuqori o'rinlarda turadi (41 500 mlrd so'm), qishloq xo'jaligi bo'yicha esa yetakchi viloyat hisoblanadi (18 300 mlrd so'm).

Farg'ona iqtisodiy mintaqasida YaIM o'sish sur'atining o'rtacha ko'rsatkichlari 5,4 %ni tashkil etib, qishloq xo'jaligi bo'yicha O'zbekistonda yetakchilik qiluvchi iqtisodiy rayon hisoblanadi.

Janubiy iqtisodiy mintaqada joylashgan Qashqadaryo va Surxondaryoda YaIM o'sish sur'ati 5,0-5,1 %ni tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi bo'yicha pastki o'rinlarni egallaydi.

Mirzacho'l iqtisodiy mintaqasidagi Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida YaIM o'sish sur'atlari past darajani ko'rsatib, ushbu viloyatlarning iqtisodiy rivojlanishi sust kechayotganini bildiradi.

YaIM o'sish sur'ati bo'yicha eng past ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatiladi (4,7 %). Mazkur hududda sanoat ishlab chiqarish ham eng quyi ko'rsatkich bilan ifodalanadi.

YaIM o'sish sur'ati bo'yicha uchinchi o'rinda Navoiy viloyati turib, sanoat ishlab chiqarish bo'yicha ham yetakchi o'rinlarda qayd etilgan, biroq qishloq xo'jaligi bo'yicha eng past pog'onani egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida hududlararo tafovutni bartaraf etish uchun har bir hududning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va investitsiya siyosatini faollashtirish talab etiladi.

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari (2020-2025-yillar)

Hudud nomi	Aholi jon boshiga daromad (ming so'm)	Bandlik darajasi (%)	Ta'lim xarajatlari (mlrd so'm)
Toshkent shahri	35079,6	72,4	10800
Toshkent viloyati	13740,5	68,7	9300
Samarqand viloyati	11131,3	65,9	8400
Farg'ona viloyati	11427,2	64,3	7700
Andijon viloyati	11983,1	63,5	7300
Namangan viloyati	9457,0	62,2	7000
Buxoro viloyati	15883,9	61,7	6700
Qashqadaryo viloyati	10563,3	60,9	6400
Surxondaryo viloyati	10396,4	60,2	6200
Xorazm viloyati	13454,6	59,7	6000
Jizzax viloyati	10220,2	59,2	5800
Sirdaryo viloyati	10451,8	58,6	5600
Navoiy viloyati	20048,7	67,3	8500
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9198,0	57,8	5400

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.



O'zbekiston Respublikasi hududlarining 2020-2025-yillardagi ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili davomida aholi jon boshiga daromad, bandlik darajasi va ta'lim xarajatlari bo'yicha hududlarda nomutanosibliklar mavjudligi aniqlandi.

Aholi jon boshiga daromad bo'yicha yetakchi o'rinda Toshkent shahri (35 079,6 ming so'm) turadi. Ikkinchi o'rinni Navoiy viloyati (20 048,7 ming so'm), eng past daromad esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (9 198,0 ming so'm) kuzatiladi.

Bandlik darajasi bo'yicha ham yetakchilikni Toshkent shahri egallaydi (72,4 %). Bandlik darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda Toshkent viloyati (68,7 %) va 1,4 % farq bilan uchinchi o'rinda Navoiy viloyati turadi. Eng past ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etilgan (57,8 %).

Ta'lim xarajatlari bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (10 800 mlrd so'm), eng past ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasida hududlardagi nomutanosiblikni kamaytirish uchun bandlik darajasi bo'yicha past o'rinlarda turgan hududlarda bandlikni oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish hamda ta'lim kabi ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish uchun investitsiyalar yo'naltirish zarur.

Bundan tashqari, iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda raqamli infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy tashabbuslarni rag'batlantirish hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali chekka hududlarda ham iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish, masofaviy xizmatlarni joriy etish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati oshadi.

Umuman olganda, "O'zbekiston-2030 strategiyasi"ning muvaffaqiyati hududlararo integratsiyani kuchaytirish, markaz va joylardagi boshqaruv o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishga bevosita bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan hududiy iqtisodiy islohotlar mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Biroq iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekis rivojlanishi hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari yetakchi o'rinlarda tursa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida rivojlanish darajasi nisbatan past.

Hududlar rivojlanishidagi tafovutni ulardagi infratuzilma, mehnat resurslari va investitsiyalar taqsimoti bilan izohlash mumkin. Ushbu nomutanosibliklar mamlakatning barqaror rivojlanish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu sababli, mamlakatdagi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, investitsiyalarni maqsadli yo'naltirish va qoloq hududlarni rivojlantirish davlat oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hududlar rivojlanishidagi tafovutni kamaytirish orqali mamlakatda barqaror iqtisodiy holatni ta'minlash mumkin.

Hududiy iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun bir nechta asosiy vazifalarni bajarish talab etiladi. Qoloq hududlarga investitsiya oqimini oshirish zarur, bu orqali qishloq joylarida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish mumkin. Natijada, yangi ish o'rinlari yaratish va bandlik darajasini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash orqali ta'lim va kasb-hunar tizimini takomillashtirish mumkin. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha kuzatuvlar o'tkazish va o'sish sur'ati past bo'lgan hududlarda tezkor chora-tadbirlar ko'rish zarur. Sog'liqni saqlash, ta'lim kabi ijtimoiy xizmatlar uchun ajratilayotgan mablag'larni hududlar kesimida muvozanatlashtirish orqali ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash mumkin.

Hududiy rivojlanishda muvozanatni ta'minlash, resurslar va investitsiyalarni oqilona taqsimlash, har bir hududning o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanib, ularning iqtisodiy o'sishini ta'minlash muhimdir. Hududlararo nomutanosiblikni kamaytirish orqali nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlari, balki aholi farovonlik darajasi, bandlik darajasi va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlari ham oshadi. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda amalga oshirilgan hududiy klaster tizimi, yangi sanoat zonalari va mahalliy investitsiya dasturlari ijobiy natijalar bermoqda. Ular iqtisodiy o'sishning mintaqaviy manbalarini kengaytirish orqali viloyatlar o'rtasidagi tafovutlarni bosqichma-bosqich kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Ammo strategiyaning to'liq amalga oshirilishi uchun faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni emas, balki hududlarning ijtimoiy, ekologik va raqamli rivojlanish darajasini ham hisobga olgan kompleks yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. World Bank. World Development Report 2023: Equitable Growth and Regional Development. Washington, D.C.: World Bank Group, 2023. 312 b.



3. Mustafakulov Sh.E. O'zbekiston-2030 strategiyasi: hududiy iqtisodiy rivojlanish doirasida viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2025-yil, maxsus son (№ 003).
4. Creswell J. W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches (4th ed.). SAGE Publications, 2014.
5. Filenta P., Kydros D. Literature Review of Economic and Regional Development through Quantitative Methods and Social Network Analysis. European Journal of Interdisciplinary Studies, 2022, 14(1).
6. Krugman P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1991. 142 b.
7. Huang Y. Capitalism with Chinese Characteristics: Entrepreneurship and the State. Cambridge: Cambridge University Press, 2008. 368 b.
8. Lenchuk E. B. Hududlarni mutanosib rivojlantirishni ta'minlashdagi global yondashuv va strategiyalar. Jamiyat va iqtisodiyot jurnali, 2024, № 2, 10-18-betlar.
9. Filenta P., Kydros D. Literature Review of Economic and Regional Development through Quantitative Methods and Social Network Analysis. European Journal of Interdisciplinary Studies, 2022, 14(1).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
